

**MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QONUNCHILIGI IJROSI USTIDAN  
NAZORATNI TASHKIL ETISHNING MAQSADI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH  
YO'LLARI**

Alisher Raxmatullayev

*O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi  
magistraturasi tinglovchisi Elektron pochta: alisher\_rm@mail.ru*

**Annotatsiya:** *O'zbekiston Respublikasida shaxsning mehnat jarayonidagi xavfsizligi, sog'lig'i va ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiyena va davolash profilaktika tadbirlarini qamrab oluvchi, mehnatni muhofaza qilish tizimi tashkil qilingan. Bu sohada O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tomonidan mehnatni muhofaza qilishda qonunchilikka rioya qilinishini nazorat qilish masalasi alohida o'rinn tutadi. Mehnatni muhofaza qilish qonunchiligining ijrosi har bir davlatning iqtisodiyotining o'sishi va fuqarolarining yaxshi hayot sifatini ta'minlash uchun zarurdir[1]. Bu maqolada, mehnatni muhofaza qilish qonunchiligi ijrosi ustidan nazoratni tashkil etishning maqsadi, uning davlat va jamiyat uchun qanday ta'sir ko'rsata olishi, takomillashtirish va shu bilan bog'liq muhim masalalar haqida so'z yuritamiz.*

**Kalit so'zlar:** mehnatni muhofaza qilish, qonunchilikka rioya qilinishini nazorat qilish, profilaktika, Mehnat kodeksi, inspeksiya, prokuratura, xavfsizlik texnikalari, baxtsiz hodisalar, ogohlantiruv, kasbiy kasalliklar, Xalqaro Mehnat Tashkiloti.

**THE PURPOSE OF ORGANIZING CONTROL OVER THE IMPLEMENTATION OF  
LABOR PROTECTION LEGISLATION AND WAYS OF ITS IMPROVEMENT**

**Abstract:** *In the Republic of Uzbekistan, a labor protection system has been established, which includes socio-economic, organizational, technical, sanitary-hygiene and treatment-preventive measures aimed at ensuring the safety, health and working ability of a person in the labor process. In this field, the issue of control of compliance with the legislation on labor protection by the prosecutor's office of the Republic of Uzbekistan has a special place. The enforcement of labor protection legislation is necessary for the growth of the economy of every country and to ensure a good quality of life for its citizens. In this article, we will talk about the purpose of organizing control over the implementation of labor protection legislation, how it can affect the state and society, improvement and important issues related to this.*

**Key words:** *labor protection, law enforcement, prevention, Labor Code, inspection, prosecution, safety techniques, accidents, warning, occupational diseases, International Labour Organization.*

## ЦЕЛЬ ОРГАНИЗАЦИИ КОНТРОЛЯ ЗА ИСПОЛНЕНИЕМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА ОБ ОХРАНЕ ТРУДА И ПУТИ ЕГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

**Аннотация:** В Республике Узбекистан создана система охраны труда, включающая социально-экономические, организационно-технические, санитарно-гигиенические и лечебно-профилактические мероприятия, направленные на обеспечение безопасности, здоровья и трудоспособности человека в процессе труда. В этой сфере особое место занимает вопрос контроля за соблюдением законодательства об охране труда органами прокуратуры Республики Узбекистан. Применение законодательства об охране труда необходимо для роста экономики каждой страны и обеспечения хорошего качества жизни ее граждан. В этой статье мы поговорим о цели организации контроля за исполнением законодательства об охране труда, как это может повлиять на государство и общество, совершенствовании и важных вопросах, связанных с этим.

**Ключевые слова:** охрана труда, право применение, профилактика, Трудовой кодекс, проверка, привлечение к ответственности, техника безопасности, несчастные случаи, предупреждение, профессиональные заболевания, Международная организация труда.

Mehnatni muhofaza qilishning bugungi kundagi ahamiyati juda yuqori, chunki mehnat barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning asosiy omili hisoblanadi. Mamlakatimizdagi iqtisodiy o'sish sur'atlari – aholi bandligini ta'minlash va turmush darajasini ortishi borasida amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar natijasidir. O'zbekiston Respublikasida inson huquq va erkinlarini himoya qilishning xalqaro standartlariga muvofiq huquqiy asoslarni yaratish bo'yicha aniq va maqsadli ishlar olib borilmoqda. Xalqaro hamjamiyat a'zosi sifatida xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalarining ustuvorligini tan olgan holda Konstitutsiya bilan mustahkamlagan.

Mehnatni muhofaza qilish qonunchilikining asosiy maqsadi, fuqarolar huquqini va manfaatlarini himoya qilishdir. Nazorat tizimi orqali, davlat va uning muassasalari mehnat sharoitlarini o'zgartirish, ish haqini oshirish va boshqa huquqiy talablar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda ishtirok etishadi[2]. Shu bilan birga, nazorat tashkil etilishi va ijro etilishi, ish beruvchilar hamda ishchilar tomonidan qonunlarning buzilishini oldini olishga yordam beradi. Mehnatni muhofaza qilish qonunchiligi ijrosi ustidan nazorat, shuningdek, iqtisodiyotning o'sishiga va barqaror rivojlanishiga o'tishi bilan bog'likdir. Ish beruvchilar va ishchilar o'rtasidagi adolatli va samarali shartnomalar, mamlakatning iqtisodiyotida ish haqi, ish vaqtining nazorati va boshqa mehnat sharoitlarining sifatini yaxshilashga ta'sir etadi. Bu esa, ishchilar va ish beruvchilar o'rtaida yaxshi munosabatlar va ishonchni oshiradi.

Shu bilan birga, mehnatni muhofaza qilish qonunchiligi ijrosi ustidan nazoratning ahamiyati, jahon miqyosida raqobatbardoshlikni oshirishga ham ta'sir etadi. Adolatli va samarali mehnat sharoitlarining yaratilishi, mamlakatning investitsiya jozibadorligini oshiradi. Shuningdek, mehnatning sifati va samaradorligi, mamlakatning eksport qobiliyatini oshirish va xalqaro muammolarini hal qilishda yordam beradi. Mehnatni muhofaza qilish qonunchiligi ijrosi ustidan nazorat – jamiyatning salomatligi va xavfsizligini ta'minlash bilan ham bog'liqdir. Bunda, mehnat muhofazasi qoidalariga rioya etilishi, ishchilar uchun sog'lom va xavfsiz ish muhitini yaratadi. Bu esa kasalliklar va ish joyidagi halokatlarning kamayishi, ishchilar salomatligining oshirilishi va ish beruvchilar tomonidan xavfsiz va ishonchli sharoit yaratib berishga yordam beradi.

Ta'kidlash joizki, mehnatni muhofaza qilish qonunchiligi ijrosi ustidan nazoratning mavjudligi, ishchilar va ish beruvchilar o'rtasidagi muammolarni hal qilish uchun muhimdir[3]. Nazorat muassasalari, ish beruvchi va ishchi o'rtasida kelib chiqadigan muammolar, talablar va huquqiy to'qnashuvlarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Bu shikoyatlar, murojaatlar va boshqa huquqiy masalalar tez va samarali hal qilinishi, jamiyatning ishonchini saqlash va ish muhitini yaxshilashga ta'sir etadi. Shuningdek, ekologik muhitni saqlash uchun ham muhim hisoblanadi. Uning yordamida, ish beruvchilar, ishchilar va davlat muassasalari, atrof-muhitni buzuvchi omillar va fabrikalar, zavodlar yoki boshqa ish joylaridan kelib chiqadigan kasalliklar va zararlar bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishga intilishadi. Shuningdek, mehnat muhofazasi qoidalari, resurslarni samarali ishlab chiqarish va atrof-muhitni ifloslashdan saqlash maqsadida ishlatalishi mumkin.

Bundan tashqari, bugungi kunda bunyodkorlik ishlari hajmi ortishi bilan qurilish sohasida ish beruvchilar tomonidan sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish borasida choralar ko'rilmasligi, texnologik jarayonlar takomillashma-ganligi, loyiha hujjalariiga amal qilinmasligi, qurilish konstruksiyalari va texnologik uskunalar xatardan holi emasligi, uskuna va asboblarning nosozligi, saqlovchi moslamalar va to'siqlar mavjud emasligi, shuningdek, ish jarayonida shaxsiy himoya vositalaridan foydalanimaganligi, ish o'rinalarida mehnat sharoitlari baholanmaganligi hamda xodimlar uchun sanitariya-maishiy sharoitlar yaratilmaganligi sababli baxtsiz hodisalar soni yildan yilga ortib bormoqda[4].

Eng muhim jihatlaridan yana biri shundaki, mehnatni muhofaza qilish qonunchiligi ijrosi ustidan nazoratning mavjudligi, qonun va tartibni saqlash bilan bog'liq hisoblanadi[5]. Nazorat orqali, mehnat qonunchiligining buzilishining oldini olish va huquqbazarliklar ustidan nazorat olib borish imkoniyati yaratiladi. Bu esa, jamiyatning huquqiy madaniyatini oshirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va xalqaro standartlar asosida ishlaydigan bir mamlakat sifatida nom qozonishga yordam beradi.

Bugungi kundagi ahvolini tahlil qilishda statistik ma'lumotlar muhim rol o'ynaydi. Statistik ma'lumotlar, mehnat muhofazasi qonunchilikining ijrosi ustidan nazoratning

samaradorligini o'lchash va muammolarni aniqlashda muhimdir[6]. Ayniqsa, bu ma'lumotlar, ishchilarning huquqining ta'minlanishi, ish beruvchilar va ishchilar o'rtasidagi munosabatlarning yaxshilashi, mehnat muhofazasi qonunchilikining ijrosi va ishchilarning salomatligi va xavfsizligi bilan bog'liq taraqqiyotni ko'rsatadi[7]. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (International Labour Organization)ning 2021-yildagi ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'y lab 2,78 milliard kishi ishlaydi. Bu ishchilarning 19% (446 million kishi) kasaba, kooperativ yoki boshqa shu kabi tashkilotlarga a'zo bo'lgan. Xalqaro Mehnat Tashkilotining ma'lumotlariga qaraganda, 2021-yilda dunyoda kamida 152 million bolalar majburiy mehnatga jalg qilingan. Bu bolalar mehnatining 73% (111 million) katta xavfli va zararli ish sharoitlarida ishslashgan.

Xalqaro Mehnat Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilning birinchi yarmida dunyo bo'y lab yillik ish vaqtidagi o'rtacha talab 2,2% tushib, bu 2019-yilga nisbatan 72 milliard ish soatiga teng. Shundek, 2021-yilda qisqa vaqtli ish kontraktlari, muvaffaqiyatsizlik va ishsizlikning o'sishi tufayli ishchilar uchun o'zgaruvchan ish sharoitlari paydo bo'lgan. 2021-yilda xavfsizlik va salomatlik statistikasi bo'yicha dunyo bo'y lab 2,3 million kishi ish joyida sodir bo'lgan halokatlar va kasalliklar sababli vafot etgan[8].

Mehnatni muhofaza qilish mamlakat iqtisodiyotining o'sishi, fuqarolarining yaxshi hayot sifatini ta'minlash, jahon miqyosidagi raqobatbardoshlikni oshirish, ekologik muhitni saqlash, jamiyatning ma'naviy qiymatlari va sotsial ko'rinishini yaxshilash, qonun va tartibni saqlash uchun juda muhimdir. Bu borada, har bir davlat va jamiyatning bu sohadagi harakatlarini kuchaytirish va nazorat tizimlarini samarali ishlashi, barcha ishtirokchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan muhim bir vazifasidir. Ushbu nazoratning samaradorligi, o'z navbatida, ish beruvchilar va ishchilar o'rtasida o'zaro ishonch va hurmatni oshiradi, ishchilarining salomatligi va xavfsizligini ta'minlaydi va mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotiga to'g'ri ta'sir etadi.

O'zbekistonda mehnatni muhofaza qilish qonunchiligi ijrosi ustidan nazorat qilishni takomillashtirish va samaradorligini oshirish uchun quyidagi ishlar amalga oshirilishi kerak:

1. Qonuniy bazani takomillashtirish (Mehnat qonunchiligining xalqaro standartlar va amaliyotlarga mos kelishi uchun qonuniy bazani doimiy ravishda yangilash va takomillashtirish lozim);
2. Nazorat va tekshiruv muassasalarini kuchaytirish (Mehnatni muhofaza qilish qonunchiligi ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi muassasalar, xususan, prokuratura organi xodimlarining kasbiy malakalarini oshirish kerak);
3. Huquqiy madaniyatni oshirish (ish beruvchilar va ishchilarning mehnat huquqining ahamiyatini tushunishlari, o'z huquq va majburiyatlarini boshqarishlari uchun ishchilar va ish beruvchilar uchun ta'lim kurslarini tashkil etish lozim);

4. Ishonch va shaffoflikni ta'minlash (Mehnat muhofazasi qonunchiligi ijrosi ustidan nazorat qilish jarayonida shaffoflik va ishonchli axborot almashinuvini ta'minlash, bu o'z navbatida, ishchilarining va ish beruvchilarining huquqlarini muhofaza qilishga yordam beradi).

Shuni ta'kidlash kerakki, mehnatni muhofaza qilish qonunchiligi ijrosi ustidan nazoratning ahamiyati, mehnat bozori va iqtisodiyotning o'sishiga ham katta ta'sir etadi. Bu nazorat orqali, yuqori sifatli va samarali ish haqida talablar, ish beruvchilar uchun raqobatbardoshlikning oshirilishi, sanoatning innovatsiyalar va texnologiyalar bilan ishlab chiqarishni oshirish, tashqi investitsiyalar va xalqaro hamkorliklarni jalb etish imkoniyatlari beriladi. Bu borada, har bir davlatning mehnatni muhofaza qilish qonunchiligi ijrosi ustidan nazorat muassasalarini takomillashtirish, ularning resurslarini va samaradorligini oshirish, fuqarolar, ish beruvchilar va boshqa ijtimoiy guruhlar bilan o'zaro hamkorlikni kuchaytirish talab qilinadi[9]. Shu bilan birga, jamiyat a'zolari va ishtirokchilar, o'z huquqlarini va manfaatlarini himoya qilish uchun qonunlarning talablariga rioya etish, nazorat muassasalariga yordam berish va o'zaro maslahatlashuvlarda ishtirok etishga chaqiriladi.

Ushbu maqsadlarni amalgalash uchun, har bir jamiyat a'zosi va ishtirokchilar, mehnatni muhofaza qilish qonunchiligi ijrosi ustidan nazoratning maqsadini tushunishi, o'z navbatida, barcha ishtirokchilar o'rtasida adolatli va samarali shartnomalar, sog'lom va xavfsiz ish muhitini yaratishga yordam beradi. Bu umumiy taraqqiyot, barqaror iqtisodiyot va yuksak sifatli hayot sifatini ta'minlashga olib keladi.

### **FOYDALANILGAN MANBALAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi;
2. O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni, 22.09.2016 yil. O'RQ-410-son;
3. Y. Tursunov, M.A. Usmanova. Mehnat huquqi. Darslik. -T.: TDYI nashriyoti. 2006-yil. 238-bet.;
4. Ijtimoiy sohada qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati. Uslubiy qo'llanma // yu.f.f.d. (PhD) A.B. Komilov va boshqa mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o'rinnbosari E.T. Yuldashevning umumiy tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi, "EFFECT-D" nashriyoti. 2021. b. 29–49.;
5. Андруш, В. Г. Охрана труда : учебник / В. Г. Андруш, Л. Т. Ткачёва, К. Д. Яшин. – Минск : РИПО, 2019. – 337 с.;
6. Турсунов Й. Трудовое право. Учебник. Т.: Издательство ТГЮИ. 2005 год. -252 стр.;

7. Беляков, Г. И. Охрана труда и техника безопасности : учебник для среднего профессионального образования / Г. И. Беляков. — 3-е изд., перераб. и доп. — Москва : Издательство Юрайт, 2023. — 404 с.;
8. [www.ilo.org](http://www.ilo.org);
9. <https://spb-spr.ru/>.